

ALOHIDA YORDAMGA MUHTOJ BOLALARNING IJTIMOIYLASHUV JARAYONIDA OILANING AHAMIYATI

Rajabova Mohinur Xusan qizi

ANNOTATSIYA

Alohida yordamga muhtoj bolalar ta'lim-tarbiya hamda jamiyatga moslashuvi hozirgi davrda eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Jumladan hozirgi davrda eshtishida nuqsoni bo'lgan bolalarning vbirgina ta'lim jarayoniga moslashuvida oilaning o'rni katta hisoblanadi. Chunki alohida yordamga muhtoj bolalarning ta'lim jarayoni ularning jamiyatga ijtimoiylashuvida katta ahamiyatga egadir. Ta'limga ijtimoiylashuv esa oila muhitidan boshlanadi.

Kalit so'zlar: alohida yordamga muhtoj shaxslar, oila, jamiyat, ijtimoiylashuv.

АННОТАЦИЯ

Образование и социальная адаптация детей с особыми потребностями является одним из важнейших факторов в настоящее время. В частности, значима роль семьи в адаптации слабослышащих детей к образовательному процессу. Потому что образовательный процесс детей с особыми потребностями имеет большое значение в их социализации в обществе. Социализация и образование начинается с семейного окружения.

Ключевые слова: лица с особыми потребностями, семья, общество, социализация.

ANNOTATION

Education and social adaptation of children with special needs is one of the most important factors at the present time. In particular, the role of the family in the adaptation of hearing impaired children to the educational process is significant. Because the educational process of children with special needs is of great importance in their socialization into society. Socialization to education starts from the family environment.

Key words: persons with special needs, family, society, socialization.

Oila jamiyatning eng asosiy bosh bo'g'ini, negizi hisoblanib, ko'p asrlik mustahkam ma'naviy tayanchga ega hisoblanadi. Shaxsning ahloqiy va ma'naviy hamda ijtimoiy tiklanishiga ta'sir etuvchi omillar orasida oila yetakchi o'rinn turadi. Bolaning ijtimoiylashuvi va tarbiyalanishi bir maqsadga ega bu: uni jamiyatga moslashtirish va muloqot va normal hayot uchun zarur bo'lgan fazilatlarni shakllantirishdan iboratdir. Insonning ta'lim olishi hamda taraqqiyot va ijtimoiylashishi, jamoa ta'siri ostida sodir bo'ladigan jarayondir. Oila, mahalla, bilan birga ta'lim muassasalari shaxsni shakllantirishda faol ishtrok etadi. Shunday ekan

eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning psixologik xususiyatlari va shaxs sifatlarining shakllanishida oilaning ahamiyati alohida o‘rin kasb etadi. Oiladagi muhit va ota-onalarning munosabati, bolaning rivojlanishiga albatta o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Oilada nogiron bolaning dunyoga kelishi esa, ko‘pgina ota-onalar o‘rtasidagi munosabatlarning o‘zgarishiga olib keladi. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar oilasidagi jiddiy muammolardan biri bu muloqot qilish jarayonidir. Bu jarayon esa otaonalarda, farzand kelajagiga ishonchszilik, qo‘rquv, tushkunlik holatlarini keltirib chiqaradi. Ba’zi oilalar esa nogiron farzandlarini atrofdan, mahalla kuydan yashirib yashaydi. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bola ham sog‘lom bolalar kabi mehr, e’tibor va ta’limtarbiya olishga haqlidirlar. Biroq aksariyat oilalarda kar va zaif eshituvchi bolalarni mustaqil hayotga tayyorlash jarayonida kerakli pedagogik ishlar yo‘lga qo‘yilmagan. Bolaning rivojlanish bosqichlari hamda kamoloti va barkamol bo‘lib voyaga yetishida oilada ota-onalarning pedagogik va psixologik munosabatlari asosiy rolni o‘ynaydi. Ba’zi oilalarda enb bolalarga nisbatan e’tiborsizlik yoki xaddan ziyod avaylash va rahmdillik nuqtayi nazari bilan qarash munosabati o‘rnatalgan. Mazkur holat enb bolalarda, sog‘lom bolalardagi kabi muomala hamda muloqot, o‘z-o‘ziga xizmat, boshqa faoliyatlarda ishtirok etish ko‘nikmalarini yetarlicha shakllanmasligiga olib keladi. Natijada enb bolalar maxsus ta’lim muassasasiga kelgan kunidanoq, oddiy kundalik maishiy hayot uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni egallashga jalgan etiladilar. Bu ko‘nikmalar oddiy va soda tuyulsada, ammo enb bolalarning ijtimoiylashuvi uchun asos bo‘luvchi omildandir. Bolalar hayotida eng muhim bo‘lgan mакtabgacha davrda bolalarning asosiy malaka va ko‘nikmalarini tarkib topib, jismoniy, ahloqiy, aqliy, ekologik, estetik jihatdan tarbiyalanishga poydevor deya qo‘yiladi. Boladagi jismoniy hamda ruhiy nuqsonlarni o‘z vaqtida korreksiya qilib borilishi, shu bolalarning oila a’zolari, xususan ota-onalarining farzandi bilan muntazam shug‘ullanishi va o‘z vaqtida maktabgacha ta’lim, hamda maktab-internatlariga va maktabdan keyingi ta’limga yo‘naltirishlariga bog‘liqdir. Maxsus ta’lim, o‘quvchilarni mustaqil ta’lim bilan ijtimoiylashuviga tayyорlaydi. Maxsus ta’lim tizimi enb bolalar jamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida siyosiy, iqtisodiy va boshqa ijtimoiy munosabatlarning barchasida me’yorda rivojlangan, sog‘lom tengdoshlari qatorida o‘z ona tilida bemalol, erkin, samarali va barcha uchun tushunarli tarzda muloqot qila olishini ta’minlaydilar. Eshitishida muammoi bo‘lgan bolalar uchun maxsus maktab-internatlarining barchasi ovoz kuchaytiruvchi apparatlar bilan ta’minlangan, xonalar esa maxsus tovush qaytarmaydigan qoplamlar bilan jihozlangan va sog‘lomlashtirish bo‘yicha tadbirlarni maqsadli amalga oshirish uchun sharoitlar yaratilishi, maxsus ta’lim tizimini samaradorligini ta’minlaydi. Alovida yordamga muhtoj shaxslarni turmush faoliyatidagi cheklanishlarini bartaraf etish, to‘laqonli hayot kechirishlariga, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy turmushida faol qatnashishlarida, shuningdek,

o‘zlarining fuqarolik burchlarini bajarishlariga imkon beradigan qulay shart-sharoitlar yaratish esa davlatimiz insonparvarlik siyosatining asosiy mazmunini tashkil etmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimova O. “Oila huquqi asoslari” – Toshkent: “O’qituvchi”, 2003.
2. Ota-onalar va murabbiylar uchun ensiklopediya. Tuzuvchi: M.Aminov. Mas’ul muharrir A.Majidov
3. Imomova. M “Oilada ma’naviy va ahloqiy tarbiya.”